

**ABDULLA QODIRIYNING «MEHROBDAN CHAYON» ROMANIDA
ESTETIK IDEAL VA BADIY SINTEZ YAXLITLIGI**

Madirimov Bahrom

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotasiya. Maqolada estetik ideal va badiiy sintez o'zaro munosabati Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romani misolida nazariy tahlilga tortiladi. Unda yozuvchi ijodiy niyati va falsafiy umumlashma aloqasi, inson ruhiyati va muallif a'moli uyg'unligi, baholash mezonlari va tasavvur daxlsizligi xususida mushohada yuritiladi. Aslida g'oya va poetik ifodasi adib istak hamda imkonini tenglashtirish maqsadidan kelib chiqadi.

Tayanch so'zlar: estetik ideal, badiiy sintez, yaxlitlik, tasvir, ifoda, roman.

Har bir yozuvchi tasvir predmetiga o'z istagidan kelib chiqqan holda yondashadi, voqea-hodisa va tasavvur-taassurot amaliy ishlanmasi ijodkor fitratida yangicha estetik qiymat kasb etadi. Muallif poetik g'oyani ifoda etishda hayotiy a'molni badiiy umumlashmaga ulaydi, ijtimoiy-tarixiy muammoga munosabat uning tayanch markazini belgilaydi. Vaholanki, davr ruhiyati eng yaxshi sifatlarini o'zida mujassam qiladigan jamiyat a'moli adib uchun yo'llanma vazifasini o'taydi, zamon ehtiyoji aynan vaziyatni tipiklashtirishni taqozolaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da «sintez» atamasiga quyidagicha izoh berilgan: «sintez –yunoncha «sinthezsis» -«birikish», «qo'shilish»; «biriktirish», «qo'shish» so'zidan olingan; predmet va hodisalarni bir butun holda, ularni tashkil etuvchi qismlarning birligi va o'zaro bog'lanishida o'rganadigan ilmiy-tadqiqot»dan iborat. Badiiy adabiyotda voqelik yaxlit ravishda namoyon bo'ladi. Yozuvchi asardagi tasvirlangan voqea-hodisalarni badiiy sintez qilish orqali o'z badiiy olamini yaratadi. Turmushda uchraydigan jamiki hodisa xarakterlisini tanlab, o'z badiiy niyatiga xizmat qildiradi. Sof realistik asarlarda ham hayot barcha ikir-chikirlari qalamga olinmaydi, badiiy

«sintez»lanadi.

Maqolada biz Abdulla Qodiriyning o'zbek xalqi milliy-mental xususiyatlari, badiiy nutq va qaxramon individual mohiyatiga mos harakat qilishlari qay tarzda tahlil etilishi, pirovardida ularning obraz yaratilishidagi ahamiyatini o'rganishni maqsad qildik. Ma'lumki, buyuk realist adib dunyoqarashi milliy mezonlar asosida shakllangan. U o'zining barcha asarlarida, jumladan adabiy-tanqidiy maqolalarida ham milliy mentalitetga xos bo'lgan jihatlarga ko'proq e'tibor beradi. Professor Umarali Normatov «Adib estetikasi» nomli tadqiqotida shunday yozadi: «...Uningcha (*Abdulla Qodiriy (S.U)*), haqiqiy yozuvchi bo'lmoq uchun turmushni har taraflama o'rganish, buning uchun uning har sohalaridan xabardor bo'lishi kerak. Adib ijodda yozuvchining hayotiy tajribasi, sinchkov kuzatuvchanligi muhim ahamiyatga molik ekanini alohida ta'kidlaydi, u o'z hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, o'z boshidan kechirganlari yozuvchi bo'lishida katta rol o'ynagani, o'zbeklarning urf-odatlarini, ular ichida uchraydigan tiplarni o'rganolganligini aytadi»¹. Muallif o'zbek xalqi maishiy turmush tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari va an'analarini makon va zamon kontekstda yaxlitlab, obrazlar yashagan davr hamda xarakterlar mohiyatini mutanosib ravishda sintezlay olgan. «Mehrobdan chayon» romanida qahramon harakati uchchala toifani ham qamraydi. Solih maxdum obrazi muallif pozitiv qarashlari bilan muttasil boyitilsa-da, nisbatan ma'naviy daxlsiz rivojlanadi: hayotiy mantiq va badiiy iroda yo'nalishi sintezi uni ijodiy mustaqillashtiradi, muallif Anvar Mirzo, Ra'no, Nigor oyim obrazlari tadrijiga tez-tez aralashadi, o'z izmiga soladi. Mantiqiy-xulosaviy yechim sari yo'nalish uning asosini tayin etadi. Ba'zi holatlarda Abdurahmon domla, Sultonali, Shahodat mufti xarakterlari teran falsafiy-ijtimoiy hamda g'oyaviy-estetik talqinni shakllantiradi.

Abdulla Qodiriy konkret tarixiy voqealarga asoslanib o'z badiiy olamini yaratadi. Ammo badiiy to'qimaning asarda katta rol o'ynashini ham e'tirof etadi. «O'tgan kunlar»da Yusufbek hoji va Toshkent hokimi Azizbek munosabatlari, xalq g'alayoni tasvirlarida tarixiy haqiqat mujassamlashgan. E'tiborli jihati, ana shu real

¹ Normatov U. Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi. –T.; «Universitet», 1994. 5-b.

tarixiy voqealar asar drammatizmi, qahramonlar o'zaro ziddiyati va xarakterlar takomilida muhim badiiy funksiyalarni bajaradi. Milliy tuyg'usi yuksak, davrining ilg'or fikrlovchi, xalq oldidagi majburiyatlarini chuqur his qiladigan Otabek obrazi idealligini ta'minlaydigan unsurlar shu tariqa sintezlanadi.

Badiiy sintez muayyan obraz, xoh u tarixiy bo'lsin, xoh to'qima, xarakter qirralariga o'tmish belgilarini ham, asar yaratilgan davr uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni ham joylaytirish imkonini beradi. Bu orqali ijodkor o'z a'molini o'tmish voqealari sub'ekti bo'lgan badiiy qahramonlarga estetik vazifalar yuklash bilan ifodalaydi. Abdulla Kodiriy «Mehrobdan chayon» romanida shaxs va qahramon, muhit va tarixiy sharoit, tasvir va falsafiy umumlashma nisbatini hisobga oladi. Psixologik jihatdan obraz mantig'ini dalolatlashga mayl butun asar badiiy to'qimalarini boshqaradi. Aynan «bu yerda shaxs va muhit masalasi ham bor. Abdulla Qodiriy shaxs obrazini tasvirlaganda hech vaqt biror tor muhit bilan bog'lab qo'ymaydi. U obrazlarda shakllanadigan har bir fazilatni asrlar davomida yig'ilib kelayotgan xalq tarixi va an'analariga suyanadi. Masalan, Anvar ("Mehrobdan chayon") Solih maxdum oilasida tarbiya ko'radi. Biroq Solih maxdumdan ko'ra uni xalq an'analari, qisman o'sha davrda Qo'qon mavjud ziyolilar muhiti tarbiyalaydi. Bundan tashqari Anvar, Ra'no ham yuqorida aytganimizdek yuksak ma'naviyat xazinasini bo'lmish odamiylikni o'ziga dastur qilib olgan ulug' va bepoyon adabiyotimiz ta'sirida shakllanadi»². Anvar mirzo va Ra'no xarakterlari iroda yo'sini Solih maxdum tutumini inkor ham qilmaydi, tasdiqlamaydi ham. Oddiy maktabdor fe'l-atvorida ichki manfaat tuyg'usi yetakchi, muallif hayotiylik asoslarini ta'minlagan bu omilni davr ziddiyatlari bilan tavsiflaydi. Umuminsoniy qadriyatlar vositasida ikki qahramon (Anvar va Ra'no) adib qatorida Solih maxdum xatti-harakatlarini kuzatish hamda baholashda teng vazifa bajaradi. Masxara, kalaka, kinoya va grotesk bu borada qo'l keladi, personajlar ko'z urishtirishi, hajv, tanqidiy tafakkur yordamida maktabdor domla qiyofasi to'laqonli yoritiladi. Ayni paytda, yigit va qiz xarakteri yorqinlashuvini muhit ta'siri belgilaydi, hayotiy

² Qo'shjonov M. Qodiriy – erksizlik qurboni. – Toshkent: Fan, 1992. – B. 69.
www.pedagoglar.org

e'tiqodga sodiq ikki yosh turmush tarzini o'zgartirib yuborayozgan vaziyat (Ra'no xon haramiga kanizak sifatida ko'rilishi) kurashchanlik fazilatlarini uyg'otadi. Yozuvchi har ikki obraz badiiy evolyusiyasini real-maishiy muammolar mantig'idan keltirib chiqaradi, do'sti qabri tepasida yig'lab o'tirgan asrandi farzand oq-qorani tanigan, zulm va adolatsizlikka qarshi turadigan qahramonga o'zgaradi, qiz xarakter iroda yo'nalishida ham shu xususiyatlar (loy o'ynayotgan qizaloq o'z taqdiri uchun kurashga kirgan obraz) ko'zga tashlanadi. Monolog badiiy nutq tipi sifatida qahramon his-tuyg'usini burilish pallasiga yo'naltiradi, munosabat ziddiyati (tasdiq-inkor) vositasida voqe bo'ladigan uslubiy birlikda dunyoqarash ijtimoiy-psixologik kolliziyaga uchraydi. Iqror, murojaat, ilinj, urg'u, istak va imkon sintezi natijasida rivoya shakli ijtimoiy belgilarni xususiylashtiradi. Yaxlit tasvir-ifoda aslida qahramon bayonini kun tartibiga qo'yadi, unda muqoyasa hamda nisbat raqobatga kirishadi, unda ichki nutq va tashqi nutq bir-biriga muqobillik kasb etadi:

Nigor oyim Anvar pinjiga kirib olib, o'z yo'lig'a sola boshladi. Maoshi hammasini maxdumga bermaslikka, shunga o'xshash kam-ko'stlarga ham yaratib turishg'a undar edi. Anvar andishasini rad qilib: "Har qancha bersang ham dadasi ola beradir. Lekin berganingni sen bilan bizga misi ham yuqmas. Shunday bo'lg'andan keyin, ishni o'ylab qilish kerak", der edi. Chunki Nigor oyim erining Anvarga qattig' botina olmaslig'ini sezar edi. Shunday bo'lsa ham Anvar yetti-sakkiz oyg'acha topqanini maxdumga berib, duosini olib turdi. Lekin maxdum shunchalik daromad bilan ham eski tabi'atini bir zarra o'zgartmas, hamon eski tos, eski hammom: har kun suyuq osh, xudo yorlaqag'an kun ozodliqning palovi, shunda ham Anvar kech kelib sovig'an oshni yer, uyda issig' non yopilmas, hamisha panjshanba kun yig'ilg'an non suvi qochib, taraqlab kelasi panjshanbag'acha kafolatni o'z ustiga olar edi. Bora-bora Anvar ham bu holdan siqilib, Nigor oyim kengashicha ish qilmoqqa majbur bo'ldi.

Oltin berib quruq duo va minnatdorchilik olishdan, duosiz yeb-ichishni a'lo ko'rdi. Uyga go'sht va boshqa masallig' olib berib, xohlag'an taomini buyurib turdi; o'zi yaxshi kiyinganidek, Nigor oyim, Ra'noni ham yaxshi kiyintirdi. Nodirda opasi, jiyaniga kiyim olib berdi; ikki tilloni Marg'ilonda og'rib yotqan Mohlar oyimg'a

ham sovg'a-salom qilib yubordi³.

Badiiy asar matni o'z sarlavhasi, shakli, mazmuni hamda g'oyasi bilan tug'iladi, munosabat (yozuvchi-qahramon-kitobxon) uning yashovchanligini tayin etadi.

Tayanch estetik markaz idroki aloqani mustahkamlashga xizmat qiladi, unda tahlil va talqin, ifoda va tasvir, shakl va mazmun butunlikka erishadi. Tarixiy mavzu talqinida vaziyat yanada murakkablashadi, ijodkor ikki davr «nafasi»ni bir-biriga payvandlashga intiladi. Shu ma'noda, «umumxalq tilidagi barcha birliklar badiiy tilda u yoki bu darajada estetik qiymat kasb etadi»⁴.

Aloqa-aralashuv vositasiga munosabat va baho qiymati bog'lanishi estetik vazifani ta'kidlaydi, unda idrok sezgisi badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Badiiy nutq stilistikasi matn bo'laklari tashiydigan qo'shimcha yuk – funksiya xilma-xilligidan kelib chiqadi. Mushohada, axborot, bilim, tajriba sintezi rivoyani tavsiflaydi.

Umuman, estetik ideal badiiy sintez vositasida namoyon bo'ladi, unda tarixiy voqelik qatidagi bugun uchun zarur masalalar kun tartibiga qo'yiladi va qayta mushohada etishga zamin yaratiladi.

Binobarin, masala murakkabligi shundaki, badiiy asarda ijodkor fitrati va qahramon iroda yo'nalishi individual xususiyatlari bilan keskin tafovutlanishi joiz, unda sabab va oqibat munosabatini mantiqiy izchillik ta'minlab beradi.

Idrokni to'ldiruvchi his-tuyg'u voqelikni baholashda faol ishtirok etadi, pozitiv ijodiy munosabat hodisani o'zgartiradi, boyitadi.

Shu ma'noda, Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» romanida o'tmish va kelajak uchun birday muhim masalalarni badiiy sintezlay olgan, o'z estetik idealini kitobxon ko'ngil dunyosiga yaxlit ko'chirgan adib sifatida e'tiborni tortadi.

³ Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon, - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1994. – B. 29.

⁴Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 6.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.

2. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1994.

3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.

4. Qo'shjonov M. Qodiriy – erksizlik qurboni. –Toshkent: Fan, 1992.

5. Radjabbaevich, K. N., & Durdona, A. (2022). Ancient turkish language and koyn event.

6. Киличов, Н. Р. (2021). «ОЛТУН ЁРУФ» АСАРИДА ИНСОН ТАНА АЪЗОЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛЕКСЕМАЛАР. *Вестник КГУ им. Бердаха*. №, 2, 242.

7. Kilichov, N. R., & Kabulov, I. (2023). “KÖŃÜL” KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING BA'ZI XUSUSIYATLARI (Maxtumquli she'rlari misolida). *ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O'RNI*, 2(6), 130-134.

8. Kabulov, I., & Kilichov, N. R. (2023). MAXTUMQULI SHE'RLARIDAGI BA'ZI SOMATIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI. *Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal*, 1(8), 72-79.

9. Radjabbayevich, K. N. (2023). ELEMENTS OF THE KIPCHAK DIALECT IN ANCIENT TURKIC LANGUAGE (In the example of the lexicon of the “OltunYoruk” work). *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 2(5), 108-114.

10. Киличов, Н. Р. (2019). ЗАИМСТВОВАННАЯ ЛЕКСИКА В ПРОИЗВЕДЕНИИ "ЗОЛОТОЙ БЛЕСК" ("АЛТУН ЯРУК"). In *ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ* (pp. 34-38).

11. Radjabbaevich, K. N. (2019). LINGUOAESTHETIC

CHARACTERISTICS OF THE LEXICS OF MONUMENT “OLTUN YORUG”. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(6), 35-42.

12. Rakhmonov, N., Kurbaniyazov, M., & Kilichov, N. (2020, December). SOME NOTES ABOUT CLASSIC POETICS. In *Конференции*.

13. Kilichov, N. R., & Durdona, A. (2022). Vocabulary in the old turkish language.

14. Киличов, Н. Р. ҚАДИМГИ ТУРКИЙ ТИЛДАГИ СИНОНИМ КОМПОНЕНТЛИ ЖУФТ ОТЛАР СЕМАНТИКАСИ («Олтун ёруғ» асари мисолида).

15. Киличов, Н. (2022). Қадимги туркий тилдаги синоним компонентли жуфт отлар семантикаси. *Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации*, 1(1), 40-43.